

**DIQQAT YETISHMOVCHILIGI VA GIPERAKTIVLIK SINDROMI BILAN OG'RIGAN
BOLALARDA UYQU STRUKTURASINING BUZILISHI VA UNING KUNDUZGI
FAOLIYATGA TA'SIRI**

Ko'liboyeva D.A.

Bolalar nevrologiyasi yo'nalishi 2-kurs magistri.

Saidxodjayeva S.N.

Ilmiy rahbar: t.f.d. dotsent.

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Nevrologiya, bolalar nevrologiyasi va tibbiy genetika kafedrası.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18417622>

Annotatsiya. Diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi (DYGS) bolalik davrida keng tarqalgan neyro-rivojlanish buzilishi bo'lib, u nafaqat xulq-atvor va kognitiv funksiyalar, balki uyquning sifati va strukturasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Uyqu arxitekturasidagi buzilishlar bolalarda kunduzgi diqqat pasayishi, giperaktivlikning kuchayishi, emotsional labillik va o'quv jarayonida qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Ushbu ishda DYGS bilan og'rigan ikki nafar bolada uyqu buzilishlarining xususiyatlari va ularning kunduzgi faoliyatga ta'siri solishtirma tarzda o'rganildi.

Tadqiqot maqsadi

Diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi bilan og'rigan bolalarda uyqu strukturasining buzilishlarini aniqlash hamda ushbu o'zgarishlarning kunduzgi faoliyat, xulq-atvor va diqqat ko'rsatkichlariga ta'sirini baholash.

Materiallar va metodlar

Tadqiqotda DYGS tashxisi qo'yilgan 6 va 8 yoshli ikki nafar bola ishtirok etdi.

Diagnostika klinik-nevrologik tekshiruv, DSM-5 mezonlari asosida psixologik baholash hamda ota-onalar so'rovnomalari yordamida amalga oshirildi.

Uyqu holati uyqu kundaliklari va Bolalar uyqu buzilishlari shkalasi (Children's Sleep Habits Questionnaire) orqali baholandi.

Kunduzgi faoliyat diqqat darajasi, giperaktivlik va impulsivlik ko'rsatkichlari asosida solishtirildi.

Natijalar va ularning muhokamasi

1-bemor (6 yosh): uyquga ketish vaqti cho'zilgan, tez-tez tungi uyg'onishlar va uyquning yuzaki fazalari ustunligi aniqlandi. Kunduzgi faoliyatda diqqatning beqarorligi, tez charchash va impulsiv xatti-harakatlar kuzatildi.

2-bemor (8 yosh): kechki payt uyquga ketishning kechikishi, umumiy uyqu davomiyligining qisqarishi va ertalabki uyg'onish qiyinchiliklari qayd etildi.

Kunduzgi holatda giperaktivlik, emotsional labillik va o'quv faoliyatida diqqat jamlash qiyinligi ustun bo'ldi.

Har ikki bemorda uyqu strukturasining buzilishi DYGS klinik belgilari og'irroq kechishi bilan bog'liqligi aniqlandi.

Natijalar uyqu buzilishlari DYGS simptomlarini kuchaytiruvchi muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa

Diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi bilan og'riqan bolalarda uyqu strukturasining buzilishi keng tarqalgan bo'lib, u kunduzgi diqqat, xulq-atvor va emotsional holatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uyqu buzilishlarini erta aniqlash va kompleks yondashuv asosida korreksiya qilish DYGS bilan og'riqan bolalarda kunduzgi faoliyatni yaxshilash va hayot sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.